

Qashqadaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 741 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, chik korxonalar va mikrofirmalar soni 6 726 tani tashkil qildi

2026- yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 970,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 108,0 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 712,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 131,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 496,7 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 761,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi



(ulushi foizda)

II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 413 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 14 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 399 tani tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2026- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 933,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 18,6 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 274,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 83,3 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hudud Qarshi tumanida 5,0 marta o'sish kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 617 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 614 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 8 400,5 mlrd.so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi, 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)



Chiqarish uchun javobgar:

Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi

Manzil: 180100, Qashqaryo viloyati, Mustaqillik
ko'chasi, 2 B-uy **Pochta:** gashstat@mail.uz
Tel.: 75-221-44-28